

STEREOTIPLAR – MILLAT XARAКTERI KO‘ZGUSI

Kazakov Ilhom Rozmamatovich,
f.f.n, QQDU dotsenti

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek va qoraqalpoq xalqlari milliy-madaniyatiga mansub stereotiplar har qaysi millat xarakteri ifodachisi sifatida talqin qilingan. Har qanday xalq madaniyati ko‘zgusi maqomida ixtisoslashgan muayyan stereotip olam lisoniy manzarasiga oid tasavvurlarning kengayishida muhim ahamiyat kasb etishi isbotlangan.

Tayanch iboralar: antropotsentrik tilshunoslik, lingvokulturologiya, stereotip, milliy-madaniyat, urf-odat, marosim, qadriyat, olam lisoniy manzarasi.

Zamonaviy antropotsentrik tilshunoslikda lisoniy vositalarni shu tilda muloqot qiluvchi elat, xalq, millatning madaniy qadriyatlari bilan hamkorlikda o‘rganish yanada yuqori bosqichga ko‘tarildi. Ayniqsa, milliy-madaniy qadriyatlar tarkibida alohida o‘rinni ishig‘ol etuvchi barqaror tasavvurlar – stereotiplarni talqin etish olam lisoniy manzarasining vujudga kelish omillarini yoritishda muhim ahamiyatga molik masaladir.

Stereotip – bu muayyan guruh yoki jamoaning soddalashgan, sxemalashgan, hissiy-bo‘yoqdor va favqulodda barqaror bo‘lgan obrazi, turli madaniyat vakillari tili va tafakkurining o‘ziga xosligidir [1:167]. Aslida, *stereotip* termini (yunon. stereos – «qattiq», typos – «iz, tamg‘a») degan ma‘noni bildiradi. U ilk bora 1922-yilda Amerikalik jurnalist Uolter Lippmanning «Ijtimoiy fikr» nomli ishida qo‘llanilgan va shundan keyin ilmiy hayotga kiritilgan. Lippman stereotiplarni bizning ongimizga yetib bormasidan oldin his-tuyg‘ularimizdagi ma‘lumotlarga muayyan darajada ta‘sir ko‘rsatadigan atrof-muhitni alohida idrok qilish shakli sifatida tushuntirishga muvaffaq bo‘lgan [2: 28; 95]. Uning fikriga ko‘ra, inson o‘zini qurshab turgan butun olamni yaxlit holda, qarama-qarshiliklariga binoan tasavvur etishga, anglashga intiladi. U hayoti davomida bevosita kuzatmagan sir-sinoatlarning manzarasini ongida shakllantiradi. Shu asosda inson tafakkurida juda ko‘p narsa-hodisalar haqida oldindan aniq tasavvurotlar yuzaga keladi. Stereotiplar to‘g‘risidagi tasavvur ham insonning o‘zi yashab turgan madaniy muhiti ta‘sirida vujudga keladi.

Qayd qilinishicha, aksariyat hollarda biz u yoki bu hodisani oldin ko‘rib, keyin unga aniqlik kiritmaymiz. Aksincha, oldin u yoki bu hodisani o‘zimiz uchun aniqlab, so‘ngra uni kuzatamiz. Tashqi dunyoning butun chalkashliklaridan bizning madaniyatimizga aloqadorlarinigina yulib olamiz va biz mazkur ma‘lumotni stereotip

shaklida qabul qilishga moyil bo‘lamiz [3: 81]. Demak, stereotiplar insonlarning olam borasidagi jamiki ma’lumotlarga doir bilimlar zahirasi bilan boxabar bo‘lishi, ularni o‘z tafakkuriga joylashiga qaratilgan ehtiyojlari tufayli hosil bo‘ladi. Lingvokulturologiyada: olam konseptual manzarasining bir qismi, kichik mental manzara; predmet va vaziyatlar haqidagi turg‘unlashgan milliy-madaniy tasavvurlar va ularning tilda aks etuvchi shakllari, ijtimoiy guruhlar yoki alohida shaxslar haqidagi qoliplashgan tushuncha, qarashlar ham stereotipdir [4: 36].

Stereotiplar turli-tuman xalqlar madaniyatidagi milliy xarakterni ifodalovchi, muayyan shaxs, an’ana, urf-odat, qadriyat, marosimlarni ta’riflovchi, leksikada namoyon bo‘ladigan tushunchalar sanaladi. Stereotipik xarakter – xalqning tasavvurida milliy madaniyatning targ‘ibotchisi bo‘lgan shaxs, uning vatanparvarlik, to‘g‘riso‘zlik, halollik, kuchlilik (turli xalqlarda turlicha) kabi jihatlariga taqlid, o‘zlashtirish yoki hurmat bilan munosabatda bo‘lish, uni ibrat namunasi sifatida ko‘rsatishdir. U har qanday vaziyatda ham milliy-madaniyatni ifodalovchi lingvokulturologik birlik hisoblanadi [5: 21].

Stereotip keng qamrovli va serqirra tushuncha hisoblanadi. Ular orasida lisoniy stereotiplar alohida e’tiborga molik. Lisoniy stereotiplarga turli xil belgilari asosida yondashuvga bog‘liq holda har xil ta’riflar berilganligini ta’kidlash kerak. Xususan, Yu.E.Proxorov lisoniy stereotipni psixologik asoslab, uni ijtimoiy ishlab chiqarilgan ongli modellar doirasida borliqni izohlovchi, tavsifiy va baholash belgilari yaxlitlikda mavjud bo‘lgan subyektiv erkin predmet tarzida tushunadi va talqin qiladi [6: 72].

G.Denisova talqiniga ko‘ra, stereotipning vujudga kelishi va amal qilishida obyekt obraziga o‘xshashlik, bog‘liqlik yotadi. Buning esa bir qancha sabablari mavjud: a) qandaydir «o‘ziniki bo‘lmagan» timsol-ramzni umumlashtirish va uning «o‘z» sistemasida o‘rnini belgilashga imkon beruvchi «o‘ziniki bo‘lmagan» belgini ajratish; b) «o‘z o‘rnida bo‘lmagan» «o‘z» belgisini ajratib olish; v) ma’lum bir voqea-hodisani borliqdagi «o‘z» timsoliga kiritish imkonini beruvchi belgining mavjud emasligi, «o‘z timsoli» sistemasi tashuvchilari tomonidan ancha yorqin aniqlashtiriluvchi belgining borliqdagi «o‘ziniki bo‘lmagan» timsolga yozilishi [7: 204].

Lisoniy stereotiplarga doir boshqa mulohazaga muvofiq, borliqdagi muayyan narsa haqida biror tasavvurning shakllanishi ongimizda unga o‘xshash mavjudlikning uyg‘onishi bilan bir vaqtda kechadi. Birinchi marta lampochkani ko‘rgan kishidan axborot olinganda biz undan lampochkaning nimaga o‘xshashligini so‘raymiz. U esa biz va o‘zi biladigan o‘xshashlik obyektini tanlaydi. Ana shu o‘xshashlik obyektini stereotip bo‘lib, uni ifodalaydigan so‘zlar (sinonimlari, dubletlari, uyadoshlari) lisoniy stereotip sifatida qaraladi [8: 86].

Lingvokulturologiyani ko‘proq u yoki bu xalqning etnik, ya’ni milliy stereotiplari qiziqtiradi. Etnik stereotiplar biror qavm bilan bog‘liq bilim va qadriyatlar asosida shakllanadi. Etnik stereotip deganda, ma’lum bir etnosga mansub kishilarning aksariyati uchun xos bo‘lgan standart tasavvur va o‘lchamlar nazarda tutiladi [9: 458]. Masalan, *qabr* tushunchasining evfemik ifodasi bo‘lgan *uy* so‘zi ana shunday etnik stereotip turkumiga mansub. Unda o‘limdan keyingi hayot haqidagi tasavvurlar stereotipi uyg‘unlashgan. *Qabr* tushunchasi *uy* haqidagi tasavvurlar bilan uyg‘un holatda namoyon bo‘ladi. *Uy* ikkilamchi nominatsiyasi o‘zining asl denotativ mazmuni mundarijasini *qabr* tushunchasi mag‘zi bilan boyitgan holda har ikki tushunchadan ikki marta salmoqli ifoda eta olishi bilan xarakterlidir [10: 87]. Ta’kidlash muhimki, etnik stereotiplar eng ko‘p o‘rganilgan bo‘lib, ular biror xalqqa xos bo‘lgan umumiy xususiyatlarni ifodalaydi. Ularda milliy guruhlar o‘rtasidagi munosabatlar ko‘rsatiladi. Ular muayyan millatning o‘z-o‘zini anglashi va mentalitetining tarkibiy qismi hisoblanib, milliy xarakter bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi [11]. Umuman, madaniyatlararo muloqotda o‘zbeklar mehmondo‘stligi, ruslar tavakkalchiligi, qozoqlar qaysarligi, turklar hissiyotlilik, xitoyliklar sertakallufigi, yaponlar xushmuomalaligi, estonlar sustkashligi, italyanlar qiziqqonligi, inglizlar sovuqqonligi, nemislar tartibga aniq rioya qilishi bilan butun xalq haqidagi stereotip tasavvurlarni yuzaga chiqargan [12: 120;121].

V.A.Maslovaning fikricha, stereotiplar har doim milliy bo‘ladi. Agar boshqa madaniyatlarda ayni stereotiplar uchrab qolsa, unda ular haqiqiy emas. Yoki ular bir-biriga to‘la mos kelsa ham baribir qaysidir jihatlari bilan farq qiladi. Masalan, turli madaniyatlarda navbatga turish holatlari har xil bo‘ladi. Shunga ko‘ra stereotip muomalasi ham farq qiladi. Rossiyada *kim oxiri?* deb so‘raladi yoki shunchaki navbatga turiladi. Yevropa mamlakatlarining aksariyatida navbatga turish uchun maxsus apparatdan chipta (raqam yozilgan kichik kvitansiya) yirtib olinadi va shundan keyin darcha tepasidagi elektron raqamlar ta’qib qilinadi [13: 108]. O‘zbek va qoraqalpoq madaniyatida ham *oxirgi kim?* deb atrofdagilarga yuzlanish odati shakllangan. Ayrim hollarda, ya’ni navbatga turgan kishilar haddan ortiq bo‘lgan taqdirda ularning ro‘yxati tuzilishi mumkin.

O‘zbek va qoraqalpoqlar milliy o‘ziga xosligini ko‘z-ko‘z etuvchi eng muhim urf-odatlar tarkibiga mansub to‘ylarda o‘sha xalqlarning stereotipi gavdalanadi. Haqiqatan ham, to‘y bu – inson hayotidagi baxtli onlardan biridir. Shu bois to‘ylarga o‘zbek va qoraqalpoq xalqlarida muhim voqea sifatida qaraladi. Ayniqsa, bu ikki xalq **nikoh to‘ylari // neke toylari** alohida o‘rinni egallaydi. Chunki bu to‘y yangi oilaning bunyod bo‘lishi, inson avlodining davom etishi bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli stereotip darajasida e’tirof etishga sazovor qadriyatdir.

Ta'kidlash muhimki, tarixiy manbalarga qaraganda *to'y* atamasi turkiy so'z bo'lib, «toy» yoki «qurultoy» shaklida chig'atoy xonlari davrida keng qo'llanilgan. XV asrda Movarounnahr hududiga sayohat uyushtirgan Ibn Batutta esdaliklariga asosan, *toy* bu – har yili o'tkaziladigan yig'in (qurultoy) bo'lib, unda Chingizxon avlodlari, amirlar va turkiy beklar, obro'li ayollar hamda lashkarboshilar qatnashgan [14: 162; 163]. Shuningdek, «Tavorixi xorazmshoxiya» tarixiy asarida uchraydigan ma'lumotga qaraganda, vazir Xasan-Murod qushbegining o'g'li Muhammad Yusufbek xonning qiziga uylangan bo'lib, ziyofat – *toy* (*to'y*) bir necha kun va tun davom etgan [15]. Turkiyshunos Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida aynan *to'y* leksikasi ishlatilmagan. Ammo unda *tod* – (*tud*:- *todundi* «*to'yindi*», *todg'urdi* – «*to'yg'izdi*»), *toz* – (*tuz*:- *tozdi* «*to'ydi*», *tozg'urdachi* «*to'ydiruvchi*») singari so'zlar qo'llanilgan [16: 63]. Boshqa bir manbada keltirilishicha, *to'y* 1. Uylanish, turmushga chiqish, xatna qilish va boshqa munosabatlar bilan ziyofat berib, bazm-tomoshalar orqali o'tkaziladigan xalq marosimlarining umumiy nomi. *Nikoh to'yi*. *O'g'il (xatna, sunnat) to'yi*. *Beshik to'yi*. 2. Qudalar o'rtasidagi kelishuvga muvofiq, kuyov tomonidan qiz tomonga beriladigan pul, sarpo, masalliq va shu kabilar majmui. 3. Shu narsalar yuborilishi munosabati bilan qiz xonadonida o'tkaziladigan marosim [17: 242].

Darhaqiqat, nikoh to'ylari alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki oila atalmish ilk qo'rg'on ana shu nikoh to'ylari orqali quriladi. Shunga bog'liq holda to'ylar zamirida turli xalqlar milliy-madaniyati, urf-odat, an'ana, rasm-rusum, qadriyatlar, ular mentalitetiga xos stereotiplar yashiringan. Nikoh aslida arabcha so'z bo'lib, bir qancha ma'nolarni ifodalaydi: nikoh ahdi; ahd qilmoq; shartnoma, kelishuv; nikoh rishtasini bog'lash shartnomasi; unashtirish, to'y; nikoh shartnomasi; qonuniy ayol (xotin) [18: 187]. Kishilar nikoh to'yi marosimlarida yovuz kuchlardan saqlanish, ulardan ehtiyot bo'lish va ularga qarshi kurashish maqsadida turli irim-sirimlarni bajarganlar. Nikoh to'yi marosimining birinchi bosqichida, ya'ni to'y boshlashdan bir kun oldin o'tgan arvohlar ruhini shod etish niyatida ularning ruhiga atab «xudoyi» qilingan va is chiqarilgan. Shu orqali kelin-kuyovning nikoh to'yiga ota-bobolari ruhidan ijozat so'rashgan [19: 112].

Inson o'z hayot yo'lini tanlar ekan, zimmasiga olgan eng oliy majburiyat – oilaviy burchni hech qachon unutmazligi kerak. Bizning ota-bobolarimiz azaldan balog'at yoshiga yetgan o'g'lini uylantirish yoki qizlarini turmushga uzatish masalasini o'zlari hal qilishgan. Hech qachon bu borada yoshlarning o'zboshimchalik bilan ish tutishiga yo'l qo'ymagan. Oila qurish jamoa, ota-onalar izmida bo'lgan. Shu bois, jamoa va ota-onalar kelin yoki kuyov tanlashda yetti o'lchab bir kesishga odatlanishgan. Ota-onalar tomonidan har tomonlama mukammal, benuqson

o'g'illariga qaddi-qomati kelishgan, oqil-u dono qizlar tanlangan. Ularning nasl-nasabi surishtirilgan. Chunki butun insoniyat tarixida zurriyod qoldirish oilaning eng muhim shartlaridan biri sifatida tan olingan. Shuning uchun ham ayolning bebaho hislatlaridan biri uning farzand ko'rishi deb hisoblangan. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, o'zbek va qoraqalpoqlar ota-onalari oilada kamolga kelayotgan har bir farzandiga «o'nta bo'lsa o'rni, qirqta bo'lsa qilg'i bo'lakcha» degan ma'noda alohida mehr qo'yishadi. Ayniqsa, har ikki xalq orasida serfarzand oilalarga nisbatan yuqori darajada hurmat-ehtiromlar ko'rsatiladi. Shuning uchun, agar qo'llar duoga ochilsa, hamisha ko'p farzandlilikni tilash ushbu qardosh xalqlar qon-qoniga singib ketgan, ular milliy xarakterini tavsiflovchi jihatlarni sirasiga kiradi.

Qoraqalpoq xalqida o'tmish davrlardan e'tiboran nasl sog'lomligining irsiy jihatlari alohida e'tibor qaratilib, yaqin qarindoshlar o'rtasida farzandlarning oila qurishi man qilingan. Kelajakda nuqsonli farzand dunyoga kelishining oldini olish maqsadida amaliy ahamiyatga molik mulohazalar yuritilgan, ota-onalarga bu borada foydali maslahatlar berilgan. Nikohdan oldingi tanlangan yigit yoki qizning qaysi qavm yoki urug'ga mansubligini surishtirish, ular qonining tozaligiga ishonch hosil qilish orqali ulardan tug'ilishi kutilayotgan zurriyodlarning ham benuqson, sog'lom bo'lishi his qilingan. Shunga muvofiq, uzoq yillik an'anaga ko'ra, qoraqalpoq oilalaridagi nikoh munosabatlari qarindosh urug'lar – **urivlas** (bitta urug') orasida emas, balki begona urug' vakillari bilan o'rnatiladi [20: 14]. Bunda nikohdan o'tayotganlar ularning ovullari qayerda joylashganligidan qat'iy nazar, yaqin qarindosh sanalmasligi, o'z urug'i vakili bo'lmasligi talab etiladi [21: 71]. Uzoq qarindosh, lekin bitta urug' vakillari orasidagi nikoh ham keskin ta'qiqlanadi [22: 118]. Shu jihatda ham qoraqalpoq xalqining o'tmish davrlardan saqlanib kelayotgan, ular milliy-madaniy xususiyatlarini o'zida mujassam etgan stereotip namoyon bo'ladi.

Qoraqalpoqlarda stereotipik xarakterdagi yana bitta urf borki, u ham bo'lsa, har kim o'zining o'tmishda yashab o'tgan yetti ajdodi haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi zarur. Shunga ko'ra, yettinchi avloddan keyin qarindoshlar bir-birlariga begona hisoblanib, nikohga ruxsat beriladi. Shuni qayd qilish muhimki, qoraqalpoq xalqida yaqin qarindoshlar, aniqrog'i **bóle** (opa-singillar farzandlari) orasida yoki tog'aning qiziga uylanish va jiyanini kuyov qilishga ta'qiq qo'yilmaydi. Chunki ular otalari bo'yicha turli xil urug'larga mansub deb qaraladi [23: 14].

O'zbek va qoraqalpoqlar nikoh to'yi marosimlarida magik (afsungarlik) xarakteriga ega tasavvurlar nihoyatda ko'p va xilma-xil. To'yda bajarilishi farz deb hisoblanadigan bunday harakatlar, albatta, yaxshi niyat, tilak va maqsad yo'lida amalga oshiriladiki, ular har ikki xalq madaniyatidan darak berib, shu kunga qadar

millat qiyofasini namoyish etuvchi stereotip darajasiga ko'tarilgan. Ayniqsa, o'zbek xalqida kelin-kuyovning hayoti yovuz kuchlardan holi bo'lishi uchun uyning bir burchagiga chimildiq tutish, hayotlari doimo shirin bo'lsin deb ularga shirin suv yoki sharbat ichirish, uzoq umr ko'rishi, keksayib, qartayib yurishini o'ylab bu amallarning barchasini keksa yoshdagi momolar rahnamoligida bajartirish, hayotlari xuddi oyna kabi tiniq bo'lishi uchun ularga oyna ko'rsatish kabi turli holatlar bunga misol bo'la oladi [24: 107].

Nikoh marosimi qoraqalpoqlarda **neke** (nikoh) deb nomlanib, xalq orasida uning *neke qiyiw* va *nekeden o'tiw* kabi shakllari keng qo'llaniladi [25: 482]. Har ikki xalq orasida ko'pincha bu marosim kelin kuyovning xonadoniga olib kelingan paytda bajariladi. Odatda ushbu marosimni din peshvosi yoki *mektep molla* (mahalliy mulla) olib boradi. Marosim vaqtida kelin-kuyovga *neke suw* (nikoh suvi) ichiriladi [26: 19]. Manbada keltirilishicha, mulla kumush tangalar solinib, nikoh suvi to'ldirilgan idish ro'parasida o'tirib, nikoh duosini o'qishga kirishgan. Idish chetining ikki tomonida maxsus o'yiqli joylari bo'lgan. Nikoh o'qib bo'lingach, mulla idishning dastlabki o'yiqli joyidan avval kuyovga, so'ngra uning ikkinchi o'yiqli tarafidan kelinga, oxirida marosimning qolgan ishtirokchilariga suv ichirgan. Bu suv hammaga ham yetmagan. Nikoh marosimi nihoyasiga yetgach, uni ado etgan mullaga idishda qolgan tangalar va bir kiyimlik mato hadya qilingan [27: 72].

Qoraqalpoqlar madaniyatida ular milliy xarakterini namoyish etishga munosib, o'zida ushbu xalq stereotipini yorqin aks ettirishga xoslangan yana bitta odat shakllangan. Qayd qilish lozimki, qoraqalpoqlarda qiz olib qochish ular milliy-madaniyatiga xos tushuncha. Yigit qizni olib qochgach, kuyov tomonidan qizning ota-onasi uyiga kamida ikki-uch kishidan iborat **xabarshi** (xabarchi) jo'natiladi. Ular xuddi sovchilar kabi o'z muddaosini dab-durustdan oshkor etmasdan, gapni uzoqdan aylantirib olib kelishadi. O'g'li yoshlik qilib, o'g'irlik qilib qo'yganligini ta'kidlab, shu bois qulchilikka kelishganini bildirishadi.

Ko'pchilik hollarda qiz o'z xohish-irodasiga binoan yigit bilan qochgan bo'lishi mumkinki, sovchilikka tashrif buyurganlar buni to'g'ridan-to'g'ri qizning ota-onasiga aytishni lozim ko'rmaydi. Agar shunday yo'l tutilsa, bu hol qizning xonadoni uchun o'ta hurmatsizlik deb qabul qilinishini ular his qilishadi. Shunday vaziyatda qizning ota-onasi ham sovchilar oldida o'zlarini hech bir gap-so'zdan xabardor emasdek tutishadi. O'sha xabarchilar ketgach, qiz xonadonidan kuyovnikiga uch-to'rt kishidan iborat qizning yangasi, opalari **ta'pberdi** (muzokara)ga jo'natilishi kerak. Ularning asosiy vazifasi olib qochilgan qizning holidan xabar olish, bo'lg'usi kuyov bilan nikoh ahdomasi tuzilishiga uning rozi-rizoligini so'rab-surishtirish bo'lib hisoblanadi.

Shuni alohida qayd qilish joizki, ko‘pincha ota-onalar qizi olib qochilishi xususida oldindan xabardor bo‘lishadi. Ba‘zan yigit qizning roziligisiz uni olib qochgan bo‘lishi mumkinki, ota-onalarning bundan xabari bo‘lmaydi. Bunday holat ayrim vaziyatlarda har ikki tomon uchun ko‘ngilsiz yakun topishi mumkin. Ya‘ni, *təpberdiga* kelganlar qizning noroziligi tufayli uni o‘zi bilan birga qaytarib olib ketishadi. Shu mahalda yigitning ota-onasi, qarindosh-urug‘lari, butun jamoadoshlari yig‘ilishib, qanday bo‘lmasin kelinni olib qolishga astoydil harakat qilishadi. Bunda hal qiluvchi fikrni qizning o‘zi aytishi kerak. Shunday hollar ham bo‘ladiki, qarindoshlar imkon qadar qizni ko‘ndirishga urinishadi. Ular qiz taqdirini har tomonlama o‘ylab, shundan keyin yakuniy xulosa chiqarishadi. Qizning bundan keyingi hayoti barbod bo‘lmasligi, «eshik ko‘rgan», «qaytib kelgan» degan isnodga qolmasligi maqsadini ko‘zlab u ko‘pincha kuyov uyida qoldirib ketiladi [28: 92].

Xulosa shuki, stereotiplar lingvokulturologik birliklar tarkibida har qanday xalq madaniyati qa‘ridagi o‘tmishga daxldor milliy qiyofani o‘zida namoyon etuvchi ko‘zgu sifatida alohida ajralib turadi. Ularda millat tarixi, urf-odat, an‘ana, qadriyatlar aks etgan bo‘lib, o‘zbek va qoraqalpoq xalqlariga xos etnik stereotiplarni o‘rganish natijasida ajdodlarimizdan shu kunga qadar vorisiylik asosida yetib kelgan milliy-madaniy xususiyatlar haqidagi tasavvurlar yanada kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik. –Toshkent: O‘ZTAU nashriyoti, 2019.
2. Lippman Walter. Public Opinion. –New York: Greenbook, 2010.
3. Ўша манба.
4. Худойберганава Д. Лингвокультурология терминларининг кискача изоҳли луғати. –Тошкент: Турон замин зиё, 2015.
5. Қурбаназарова Н.Ш. Сурхондарё воҳаси тўй маросими этнографизмларининг семантик табиати ва лингвомаданий тадқиқи: Автореф. дис. филол. фан. фалсафа д-ри (PhD). –Термиз, 2021.
6. Прохоров Ю.Е. Национальные социокультурные стереотипы речевого общения и их роль в обучении русскому языку иностранцев. –М.: ИКАР, 1997.
7. Денисова Г. Стереотипы и их роль в формировании коммуникативных навыков в условиях «неродного» двуязычия // Россия и Запад: диалог культур. Вып. 8. Т. I. –М.: МГУ им. М.В. Ломоносова, 2000.
8. Рустамова Д.А. Метафорик эвфемизациянинг лингвокультурологик ва социопрагматик аспектлари: Филол. фан. фалсафа док-ри дисс (PhD). –Фарғона, 2018.

9. Крысин Л.П. Этностереотипы в современном языковом сознании: к постановке проблемы // Философские и лингвокультурологические проблемы толерантности. –Екатеринбург: Издательство Уральского университета, 2003.
10. Рустамова Д.А. Кўрсатилган иш.
11. Madon S., Guyll M. National Stereotypes: The Princeton Trilogy Revisited and Revised. Iowa State University [http:// public. Psych.iastate. edu/madon/katz.braly.replication.pdf](http://public.Psych.iastate.edu/madon/katz.braly.replication.pdf).
12. Усманова Ш. Этномаданий стереотипларнинг лингвомаданий таҳлили // Лингвист. Илмий мақолалар тўплами IV. –Тошкент: «Akademnashr», 2015.
13. Маслова В.А. Лингвокультурология: Учебное пособие. –М.: «Академия», 2001.
14. Бартольд В.В. Сочинения. Том 5. –М.: Наука, 1968.
15. Асқаров М. Тўй: кеча, бугун, эртага: этнографик таҳлил. 1 minute read uz team. February 13, 2019.
16. Кошғарий Махмуд. Девону луғотит турк. 3-том. –Тошкент: Фан, 1963.
17. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4-жилд. –Тошкент: ЎзМЭ, 2008.
18. Рубинчик Ю.А. Персидско-русский словарь. Издательство «Советская энциклопедия». –М., 1970.
19. Тошева Г.С. XX асрда Қашқадарё воҳаси ўзбекларининг никоҳ тўйи маросимлари. Тарих фан. номз. дисс. –Тошкент, 2002.
20. Давлетияров М.М. Қорақалпоқлар замонавий кундалик ҳаётида ижтимоий институтларнинг ўрни ва роли: Автореф. дис. тарих. фан. фалсафа д-ри (PhD). – Тошкент, 2018.
21. Есбергенов Х., Атамуратов Т. Традиции и их преобразование в городском быту каракалпаков. –Нукус: Каракалпакстан, 1975.
22. Сухарева О. Традиция семейно-родственных браков у народов Средней Азии (в порядке дискуссии) // Семья и семейные обряды у народов Средней Азии и Казахстана. –Москва: Наука, 1978.
23. Давлетияров М. Кўрсатилган иш.
24. Тошева Г.С. Кўрсатилган иш.
25. Каракалпакско-русский словарь. –М.: Государственное издательство иностранных и национальных словарей, 1958.
26. Турекеев Қ.Ж. Қорақалпоқларнинг ҳозирги кундаги анъанавий этиқодлари ва тасаввурлари: Автореф. дис. тарих. фан. фалсафа д-ри (PhD). –Нукус, 2022.
27. Есбергенов Х., Атамуратов Т. Кўрсатилган манба.

28. Бегжанова Б.К. Қорақалпоқ тўй маросими фольклорининг тарихий-этнографик хусусиятлари (никоҳ тўйи маросимлари мисолида): Тарих. фан. фалсафа док-ри дисс (PhD). –Нукус, 2020.

